



## 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **12485,3 mlrd.so'mni**, o'sish **5,3 %** ni tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **2626,3 mlrd.so'mni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **21,0 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **22,1 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalaridan tomonidan 12485,3 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 9,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalashning 8,1 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 164,4 % ga o'sishi hisoblanadi.


### 2018 yilning yanvar - noyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



### ***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***


Iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2626,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 101,6 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 21,0 % ni tashkil etdi.

### ***2018 yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari***



2018 yil yanvar - noyabr oylarida iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish 56,2 foizni va nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish 43,8 foizni tashkil etdi.


### Yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



### Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Muborak (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 29,0 % ulushini), G'uzor (20,9 %) tumanlari, Qarshi shahri (12,4 %), Nishon (9,6 %) va Qarshi(5,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


### 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shu bilan birga eng kam ulush Mirishkor (1,3%), Chiroqchi (1,7 %), Kitob (1,9 %), Yakkabog' (2,0 %) va Kasbi (2,1 %) tumanlariga to'g'ri keladi.


Sanoat mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha Qarshi tumani (2017 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 198,7 % ga), Yakkabog' (117,0% ga), Kitob (114,2% ga), Chiroqchi (112,2 % ga), Dexqonobod (111,7 % ga), Qamashi (109,2 % ga), Koson (108,7 % ga) tumanlarida va Qarshi(108,4 % ga) shahrida sezilarli darajada ishlab hiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

**2018 yilning yanvar-noyabr oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'atlari, % da**



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Muborak tumanida (43260,1 ming so'm), G'uzor tumanida (13245,2 ming so'm), Nishon tumanida (8220,0 ming so'm) va Qarshi shahrida (5775,7 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3936,4 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

**2018 yilning yanvar - noyabr oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda**




### ***Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.***

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,2 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 22,1 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chiroqchi tumanida (76,5 %), Yakkabog' tumanida (72,3 %), Shaxrisabz tumanida (69,8), Qamashi (65,4 %), Qarshi (60,5%) va Shaxrisabz (56,3 %) shaharlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Muborak tumanida (1,6 %), G'uzor tumanida (2,5 %), Nishon tumanida (5,6 %) va Dehqonobod tumanida (12,0 %) kuzatildi.


### ***2018 yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da***



## Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 2 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 525 tasi Qarshi shahrida, 349 tasi Kitob tumanida, 246 tasi Shaxrisabz shahrida, 222 tasi Yakkabog` tumanida, 188 tasi Qarshi tumanida, 164 tasi Chiroqchi tumanida, 147 tasi Qamashi tumanida, 110 tasi Shaxrisabz tumanida, 136 tasi Koson tumanida, 93 tasi Guzor tumanida, 75 tasi Kasbi tumani, 52 tasi Muborak tumani, 57 tasi Nishon tumanida, 48 tasi Dehqonobod tumanida va 51 tasi Mirishkor tumanlarida joylashgan.

### 2018 yil 1 dekabr holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda 453 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 90 tadan ortiq Qarshi shahriga, 50 tadan ortiq Chiroqchi va Kitob tumaniga, 30 tadan ortiq Qarshi, Yakkabog`, Qamashi tumanlariga va Shaxrisabz shahriga, 20 tadan ortiq Koson va Kasbi tumanlariga, 10 tadan ortiq Shaxrisabz, Guzor, Nishon va Mirishkor tumanlariga to'g'ri keladi.

